

Qa yurting - oltin beshiging

TONG

Yulduzi

№28 (66361)
2002 yil
8 iyul,
dushanba
Sotuvda
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqa boshlagan.

Siz Bo'stonliqda bo'lganmisiz? «Chotqol»dachi? Albatta bo'ling va go'zallikdan zavqu shavqqa to'ling. Yam-yashil bog'lar, ravon yo'llar oralab boriladi. «Chotqol» ga. Chorvoqning zilol suvlari xush havolarni dimoqqa uradi. Oromgohga k i r i b borishingiz bilan did bilan terilgan naqshli g'ishtlar ustida turib daraxt gullarga lolu hayron qolasiz. Ha, o'zimizning qip-qizil, pushti, novvotrang atirgullar kattakon daraxtga aylanib soya solib turibdi. Qadimda aniqrog'i Alisher Navoiy zamona sida atirgullarning soyasida nafas rostlab, namoz o'qishgan deyishadi. Chindan ham joyini topsa, parvarishi o'mida bo'lsa atirgullar ham daraxt gulga aylanib ketarkan.

Toshkent neft-gaz qurilish trestiga qarashli «Chotqol» dam olish oromgohida shu kunlarda

420 nafar bolalar dam olishyapti. Ular 11 guruhga bo'linishgan. Xorazm, Buxoro, uzoq Qoraqalpoq'istondan bolalar kelgan ekanlar.

«Chotqollik janob» nomiga erishish uchun ham go'zal, ham zukko, ham topqir bo'lish kerak, axir. Bolakaylar «Mohir qo'llar», «Yosh rassomlar» to'garaklariga ham qatnashishar ekan. Ayniqla, oromgoh

yosh qalamkashlar to'garagi a'zolari haqida bizga savollar y o g ' d i r i s h g a n d a hayajonga tushdik. Jiddiyroq ishslash, rost va samimi yozish kerakligini yurakdan his qildik. Oromgoh kinozali

AHMIRGUL SOYASIDAGI
«CHOTQOL»



Yuzlari tog' havosida qizargan, baland pastliklarda yuraverib oyoqlari chayir bo'lib ketgan tengdoshlarimiz to'rga koptok otish darsini o'tashayotgan ekan. «Chotqol malikasi»,

kutubxonasi juda boy. U yerda o'zimizning «Tong yulduzi» tahlamlari ko'z qorachig'idek saqlanar, har bir yangi son ehtiyojkorlik bilan qo'lma- qo'l o'qib chiqilar ekan. Bolalar tahririyatimiz muxbirlari,

ham, qiziqarli o'yingohlari ham hamisha bolajonlar bilan fayzli ekan. Bunday sharoitni qariyb 11 yildan beri Chotqolga rahbarlik qilib kelayotgan Erkin Dehqonov juda yaxshi tashkillaganidan sevindik. 11 guruhga bo'lingan bolalar kabi bolajon tarbiyachilar bag'rida zerikish bilmay, uydagilarni sog'inish bilmay kunlarini o'tkazishar ekan. Biz ham shu kuni juda maroqli dam oldik. Sizlarni ham «Chotqol» oromgohiga dam olishga taklif qilamiz!

Kamola HAMIDOVA.

Mustaqil yurt bolalari - iqtidorlidir

Xabaringiz bor, xalq ta'limi Vazirligiga qarashli Respublika o'quvchilar texnik ijodiyot Markazi o'quvchi-yoshlar o'rtaida 2002 yilning iyun oyida sport-texnika turlari bo'yicha Respublika miqyosidagi musobaqalarni boshlab yuborgan edi.

Gazetamizning o'tgan sonlarida aviamodel, avtomodel musobaqalari haqida xabar bergandik.

Navbatdagi musobaqa esa Jizzax shahrida, raketasozlik yo'naliishi bo'yicha o'tkazildi. Unda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va o'n ikkita viloyatlardan kelgan 54 nafar yosh fazogirlar ishtirok etdilar.

Musobaqa qatnashchilari tuman va viloyatlardagi texnik ijodiyot markazining «Yosh fazogirlar»,



«Raketasozlar» to'garagi a'zolaridir. Ular viloyat bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritib, Respublika miqyosida

o'rinnasib etdi. Maksim Toshkent shahridagi 158-maktabning 8-sinf o'quvchisi. U S - 6- A turdag'i modeli bilan atrofdagilar e'tiborini tortdi.

Xuddi shu turda Sirdaryo viloyati, Guliston shahridagi 7-maktabning 10-sinf o'quvchisi Vladimir Vasilyevning modeli ikkinchi o'rinni oldi.

Andijon viloyatidagi 2-maktabning 8-sinf o'quvchisi Sergey Jo'rayev uchinchi o'ringa munosib deb topildi.

Bundan tashqari, S-4-A, S-7, S-3-A turlarida ham birinchi, ikkinchi va uchinchi o'rinnlar o'zegasini topdi.

G'oliblarga homiylar tomonidan esdalik sovg'alari berildi. Jumladan, Jizzax viloyatining «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati bo'limi, Xalq ta'limi Vazirligi o'z «Faxriy yorliq»lari, qimmatbaho sovg'alarini topshirdi.

Raketamodelchilar musobaqasini kuzatar ekanmiz, ayniqsa, sirdaryolik, andijonlik va samarqandlik yosh fazogirlarning faol qatnashganiga guvoh bo'ldik. Demak, bu viloyatlarda sport-texnika ishlari yaxshi yo'lga qo'yilganidan dalolatdir.

Umid qilamizki, navbatdagi yosh fazogirlar musobaqasida boshqa viloyat o'quvchilari ham bo'sh kelmaydilar.

Buning uchun esa ko'proq o'qish va o'rganishga to'g'ri keladi.

Yozgi ta'til kunlarida bo'sh vaqtlarini bekor o'tkazmasdan, markazlardagi to'garaklarda shug'ullansalar, ayni muddao bo'lardi.



bo'ladigan musobaqaga yo'llanma oldilar.

Bolalar to'rt tur bo'yicha, ya'ni, S-6-A, S-4-A, S-7, S-3-A turlarida o'zaro bellashdilar. O'zlarini tayyorlab kelgan raketamodellarini ishga soldilar.

Bilimdonu kashfiyotchilikda birlaridan qolishmadilar. Biroq o'z nomi bilan musobaqa. G'olib aniqlanishi shart.

Kimning raketamodeli uzoqroq parvoz etishiga, uning qulayligiga, tashqi ko'rinishiga qarab g'olib aniqlandi.

Jamoa bo'yicha birinchi o'rinn Samarqand shahri vakillariga, ikkinchi o'rinn sirdaryolik raketamodelchilarga va nihoyat uchinchi o'rinn andijonlik raketa ishqibozlariga berildi.

Yakka tartibda o'z modeli bilan qatnashgan Maksim Muravsevga birinchi

2 iyul - O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi qabul qilingan kun

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Fan, ta'lif, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi, Respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» Markazi Toshkent shahar hokimligi bilan hamkorlikda «Vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda davlat ramzlaridan foydalanishning o'rni va roli» mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazdi. Uni Oliy Majlisning Fan, ta'lif, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisi Nazrulla Jo'rayev kirish nutqi bilan ochdi.

Bayrog'imiz, gerbimiz va madhiyamiz — davlatimiz ramzlaridir.

Bu uch milliy timsolda xalqning o'tmishi, buguni va kelajagi, shuningdek, orzulari, maqsad va

turgan quyosh tasviridan hamda so'l tomonida bug'doy boshoqlari, o'ng tomonida ochilgan paxta chanoqlari suvrati tushirilgan chambardan iborat.

Gerbning yuqori qismida Respublika jipsligining ramzi sifatida sakkiz qirrali yulduz tasvirlangan. Sakkiz qirra ichida joylashgan yarim oy va yulduz musulmonlarning qutlug' ramzidir. Gerb markazida himmat, olivjanoblik va fidoiylik timsoli bo'lgan afsonaviy Humo qushi qanotlarini yozib turibdi.

Ushbu ramz va timsollar xalqimizning tinchlik, yaxshilik, baxt-saodat, farovonlik yo'lidagi orzu- umidlarini ifodalaydi. Gerbning pastki qismidagi Respublika Davlat bayrog'ini ifodalovchi uch rangdagi chambar

Prezident asarlarini o'rgananish

MILLIY ISTIQOLOL G'OYASI: ASOSIY TUSHUNCHА VA TAMOYILLAR

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)

Birinchidan, iqtisodiyotni erkinlashtirishdagi bosh vazifa — eng avvalo, davlatning nazoratchilik va boshqaruvchilik vazifalarini — funksiyalarini qisqartirish, uning korxonalar xo'jalik faoliyatiga, birinchi galda, xususiy biznes faoliyatiga aralashuvini cheklash.

Bu — xususiy biznesga, umuman, iqtisodiy faoliyatning bozorga xos mexanizmlariga ko'proq erkinlik berish, buning uchun tegishli huquqiy zamin, tashkiliy va iqtisodiy shart-sharoit va kafolatlarni yaratish, institutsional o'zgarishlar, moliya va bank tizimini isloh etishni yanada chuqurlashtirish, rivojlangan bozor infratuzilmasini barpo etish, raqobat muhitini shakllantirishga asosiy e'tibor qaratish demakdir.

Ikkinchidan, xususiy lashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish va shu asosda amalda mulkdorlar sinfini shakllantirish, bu jarayonga tarmoqlarning asosini tashkil qiluvchi yirik korxonalarini jalb etish.

Bu — xususiy mulkning miyosi va ulushi uzlucksiz ortib boradigan ko'p ukladli iqtisodiyotni rivojlantirish, jamiyatda mulkdorlarning ko'pchilikni tashkil etishiga erishish orqali ijtimoiy hayotdagi barqarorlik va farovonlikni kafolatlash demakdir.

Uchinchidan, iqtisodiyotga xorij sarmoyasini, avvalo, bevosita yo'naltirilgan sarmoyalarni keng jalb etish uchun qulay huquqiy shart-sharoit, kafolat va iqtisodiy omillarni yanada kuchaytirish.

Bu — salohiyatli xorijiy sheriklar bilan faol hamkorlik qilish, ular bilan birga zamonaviy, xalqimiz ehtiyojiga mos, dunyo bozorida raqobatga bardosh bera oladigan mahsulotlar ishlab chiqarishni amalga oshirish demakdir.

(Davomi bor).

GERBIMIZ • FAXRIMIZ

maslagi mujassamdir.

O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida 1992 yil 2 iyul kuni tasdiqlandi.

«Gerb» so'zi nemischa «herbo» so'zidan olingan bo'lib, shohlar va hukmdorlarga davlat, sarhad, hudud va boshqa nasldan-nasnga meros qoluvchi mulk belgisini anglatadi.

Bundan 2500 yil muqaddam ulkan sarhadda hukm surgan qadimgi turk xoni O'g'uzxon davrida ham turkcha «tamg'a» so'zi aynan shu ma'noni bildirar edi.

XII asrning mashhur tarixchisi Rashididdin Hamadoniy «Tanlangan tarixlar» kitobida shahodat berishicha, O'g'uzxon o'z mol-mulklarini o'g'illariga ulus sifatida kichik davlatlarga bo'lib, in'om etgan. Ushbu davlatlar hukmdorlari ham o'zlarining xonlik tamg'alariga ega edi.

Ko'rinish turibdiki, «tamg'a» so'zining ma'nosi nemischa «herbo» so'zining ma'nosiga to'la mos keladi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi gullagan vodiylar uzra charaqlab



bandiga «O'zbekiston» so'zi bitilgan.

Davlat gerbi - mamlakat fuqarolari uchun muqaddas hisoblanadi. U yuragida Vatan tuyg'usi bor har bir kishida milliy his, o'ziga xos g'urur, eng muhimi, yurtga mehr uyg'otadi.

Mirzo Ulug'bek nomli dam olish va istirohat bog'ida Davlat ramzlarining 10 yilligiga bag'ishlangan Xalq sayli bo'lib o'tdi. Unda sevimli shoirimiz - O'zbekiston Xalq shoiri, O'zbekiston qahramoni Abdulla Oripov ishtirok etdi. Shuningdek, Respublikamizdagi yosh iste'dodli san'atkorlar o'z kuy va qo'shiqlari bilan saylga fayz kiritishdi. Toshkent shahridagi mahalla faollari ham sayning aziz mehmonlari bo'lishdi. O'zbekiston Respublikasi «Tasviriy oyna» ijodiy uyushmasi «Asosiy qonun saboqlari», «Vatan ramzları - Vatan timsolları» plakatlar ko'rgazmasini tashkil qildi.

Bayram hammada katta taassurot qoldirdi.

**Muhabbat SHERBO'TAYEVA,
O'zbekiston Respublikasi
«Tasviriy oyna» ijodiy uyushmasi
Ma'naviyat va ma'rifat ishlari
bo'yicha bo'lim boshlig'i.**

XATLAR TEGIRMOVI



«TOMCHI SUVDA HAYOT JILVASI»

Ota-bobolarimiz: «Suvga axlat tashlama, tuflama, gunoh bo‘ladi», deb bejiz aytishmagan. Yurtimizda «Tomchi suvda hayot jilvasi» ko‘rik-tanlovining o‘tkazilishi ham suvning har bir tomchisini tejab-tergab sarflashga qaratilgan tadbirdir. O‘quv yili yakunida maktabimizda boshlangan bu tadbir hozir mahallamizda davom etyapti. Ko‘ngilli va a‘lochi o‘quvchilarga kuzatish kundaliklari berilib, suvni isrof qilayotgan bolalar va aholi o‘rtasida targ‘ibot ishlari olib borish topshirildi. Tadbir bo‘lib o‘tayotgan payti quyi sinf o‘quvchilaridan biri oshxona jo‘mragini ochib ketibdi. Shundan so‘ng boshlang‘ich sinflar orasida ham tushuntirish ishlari olib borilib, ularga suvni isrof qilishning zarari to‘g‘risida tushuntirishlar berildi. Kichkintoylarning o‘zлари ham bu tadbirda faol ishtirok etdilar va suvni isrof qilmaslikka aka-opalariga va’da berdilar.

Bu tadbir natijasida maktabimizda va kattagina mahallamizda suvni biroz bo‘lsada tejashga erishdik. Negaki, ekinlarni toza suv bilan sug‘orish, ko‘cha-hovlilarga ichimlik suvidan sepish hollari ancha kamaydi.

Ona tabiat ne’matlarini avaylab-asrashga oz bo‘lsada, o‘z ulushimizni qo‘shayotganimizdan mammunmiz.

*Kamola UBAYEVA,
Poytaxtimizdagi
Obid Sodiqov nomli
249 - maktabning
8 - «A» sinfo ‘quvchisi.*

OQ YO‘L SENGA, BITIRUVCHI!

Ayni kunlarda Respublikamizdagи kasb-hunar kollejlарida bitiruv kechalari bo‘lib o‘tmоqda.

Ilk bora talaba degan nomga ega bo‘lib, uch yil davomida qadrdon dargohga aylangan bilim yurtlaridan ilk qaldирг‘ochlar parvoz qilib, katta hayot ostonasiga qadam qo‘yadilar. Mana shunday muqaddas dargohlardan biri bu Toshkent pedagogika kollejidir. Bu yerdan kelajak avlodni ilmli, yurtimizga kerakli farzandlar qilib tarbiyalaydigan ustozlar, tarbiyachilar yetishib chiqmoqda.

Bitiruv kechasiga juda ko‘plab mehmonlar tashrif buyurishdi.

Kollejimiz Prezidentimiz tomonidan ochilgan bo‘lib, o‘tgan yili 20 nafar talaba qizil diplomga bitirgan bo‘lsa, bu yil bu ko‘rsatkich ikki foizga ortdi. 49 nafar talabalarimiz qizil diplomga ega bo‘lishdi. Bunday ko‘rsatkich hali hech qayerda bo‘lmagan.

Bitiruv kechasi esda qolarli, juda ajoyib o‘tdi.

*Samixa
MIRZAMUHAMEDOVA,
Toshkent pedagogika
kolleji talabasi.*

«QIBRAY» OROMGOHIDA


Oromgohlar biz bolajonlarning sevimli maskanimizdir. O‘tgan yili ukam Mansur bilan «Qibray» oromgohida mazza qilib dam olgандик. Oromgoh bizga juda yoqib qolgani uchun bu yil ham o‘scha yerda dam oldik. To‘g‘risini aytam, oromgohni ko‘rib taniy olmadim. O‘tgan bir yil ichida oromgoh qayta ta’mirlanibdi, miriqib dam olishimiz uchun shart-sharoitlar yaratilibdi. U yerda Najmiddin Zayniddinov, Marhamat Zayniddinova, Rustam Ahmedov, Farruh Po‘latov kabi bolalar bilan do’slashib qoldik. Yetakchimiz Ahmedova Gulya Erkinovna boshchiligidagi turli xil to‘garaklarga, tadbirlarga, shoularga qatnashib, faxrli o‘rninlarni egalladik.

Oromgohdagi bizni quvontirgan yana bir yangilik- bu, «Qibray» kinoteatrida bolalarbop filmlarning namoyish etilishi bo‘ldi. «Kichkina tabib», «Qismat», «Tilsimoy — g‘aroyib qizaloq», «Masharaboz» filmlarini miriqib tomosha qildik. Shunday qilib oromgohda o‘tkazgan kunlarimiz unumli, qiziqarli va maroqli o‘tdi. «Kelasi yili bag‘ringga yana qaytamiz, oromgoh!» deya xayrlashdik.

*Mahmudjon AZIMOV,
Shayxontohur tumanidagi
169 - maktab o‘quvchisi*

OYIMGA YORDAMCHIMAN

Mening ismim Botir. Ismimni buvajonim qo‘yanlar. Uydagilar meni erkatalib «Botirjon» deb chaqirishadi. Men ularga endi katta bola bo‘lib qolganimni aytam, kulib qo‘yishadi. Oyijonim esa ular uchun har doim bola bo‘lib qolishimni aytganlari-aytgan. Xullas, dadam bilan oyimning yolg‘izgina, erkato y g i n a o‘g‘illariman. Yozgi ta’tilda ba‘zi tengdoshlarim oromgohlarga dam olishga ketishdi. Men esa uyda qoldim. Axir men ketib qolsam, oyim



bilan dadam zerikib qolishadi-da. Ular ishdan qaytishgach, qo‘llariga suv quyib, sochiq tutaman. Buvijonim ikkimiz oyim kelgunlaricha uy yumushlarini «bitirib» o‘tiramiz. Bo‘sh qoldim deguncha sevimli gazetam «Tong yulduzi»ni o‘qishga kirishaman. Ayniqla undagi boshqotirmalarni yechishni xush ko‘raman.

Oyijonim va dadajonim ishdan kelsalar, uymiz nurga to‘lib ketadi. Menimcha, dunyoda ana shundan ortiq baxt bo‘lmasa kerak.

*Botir RAXIMJONOV,
Parkent viloyati,
Namdanak qishlog‘i,
6-sinf o‘quvchisi.*

ZIRAPCHA

Men Toshkent shahrining Chilonzor tumanida istiqomat qilaman. «Zirapcha»ga maktub yozishimdan maqsad, mahallamizdagi kattalarning ayrim ishlaridan qattiq ranjiganimdir.

Hamma qo'shnilar bilan munosabatimiz yaxshi, bog' va ko'chalarni asrab-a vaylab, tozalaydigan oilalardan birimiz. Bizning bog' ko'cha tarafga qaraganligi sababli, u uyimizning orqasida joylashgan. Ayrim qo'shnilarimiz, uy egalari bilib o'tirishibdimi, deya har xil axlatlar, chiqindilar, sigaret qutilarini bog'imizga tashlab yuborishadi.

Buni ko'rib dadam, tozalab qo'ymaysizlarmi, deya bizni koyidilar. Nima qilishni bilmay, indamasdan boqqa tushib yana tozalay boshlaymiz. Ba'zida qo'shnilarga axlat tashlamanglar, deb iltimos qilsak, «Qizim, biz tashlaganimiz

SHU HAM INSOFDANMI?

yo'q. Ko'rmay turib gapirma», deya tanbeh ham berishadi. Agar o'z ko'zim bilan ko'rmaganimda, balki ularga ishonarmidim.

Bir kuni qo'shni kelinchak ko'chasiga suv sepdi, supurdi, axlatni olib, to'g'ri bizning boqqa olib kelib tashladi. Men indamay kuzatib turdim-da, sekin yoniga

borib:

-Bu nima qilganingiz, birovning uyiga axlat tashlagani uyalmaysizmi?- dedim. U esa:

- Bitta men emas-ku, boshqa kelinlar ham shunday qilishadi, -deb uyiga kirib ketdi. Men esa nima qilishimni bilim a y qolaverdim.

A z i z

tengdoshlar! Qo'shnilarimizning shu ishlari insofdanmi? Meni o'nimda bo'lganiningizda siz nima qilgan bo'lardingiz?

Shahnoza OMON qizi,

A. Navoiy nomli Respublika

Nafis san'at litseyining

11- «G» tarix sinf o'quvchisi.

O'lkamizda yoz fasli. Pishiqlik avjida. Olma, o'rik, gilos, olxo'ri, shaftolilar, handalagu qovun-tarvuzlar g'arq pishgan. Ularni to'ygunimizcha yeymiz. Lekin pishiqlikning xavfli tomoni ham yo'q emas-da. Mevalarni yuvmay yeyishning yomon oqibatlarini nazarda tutyapman...

Yaqinda eng yaqin do'stim Hikmatullaning mazasi qochib qoldi. Keling, yaxshisi hammasini bir boshdan so'zlab bera qolay:

Bir kuni Saidali, Hikmatulla va men dars tugagach, maktabdan uyga qaytayotgandik. Hikmatullaning ko'zi Usmon otaning bog'idagi olmalarga tushib qoldi. Shunda u daraxtga chiqib, qo'ynini to'ldirib olmalardan terib tushdi. O'zi bir olmani «kars» etib tishlab, bizlarga ham uzatdi. Lekin biz olmalarni uyda yuvib yeyish maqsadida cho'ntaklarimizga solib, yo'lda davom etdik.

Ertasi kuni Hikmatulla negadir darsga kelmadi. Do'stim bo'lgani uchun xavotir olib, uyiga bordim. Borsam, Hikmatulla betob yotibdi. U bilan biroz gaplashib

o'tirdik. Shunda... birdaniga Hikmatullaning dardi tutib qoldi. Oldiniga menga bildirmaslikka urindi. Lekin men buni sezdim-da:

-Hikmatulla, qayering og'riyapti?- deb

s o ' r a d i m .

Shunda u:

- U m i d ,

esingdam, Usmon otaning bog'idan xom, yuvilmagan olmalarni yegandim. O'shandan beri kasalman, - dedi...

O'rtog'imnikidan ma'yus tortib ko'chaga chiqdim. Qarasam, qo'shnimizning Jahongir ismli o'g'li behi daraxtining ustiga chiqib olib, xom behilarni yerga tashlayapti.

Uni yonimga chaqirib, Hikmatulla haqida gapirib berdim.

So'zlarimni diqqat

bilan tingladi-da,

eñdi hech qachon


xom meva

yemayman, - deya

yugurib ketdi.

Bolalar, bu voqeadan siz ham o'zingizga tegishli xulosa chiqarib olasiz, degan umiddaman.

*Umid QURONOV,
Toshkent shahar, A.Ikromov
tumanidagi 287 - maktabning
6 - sinf o'quvchisi.*



KELAJAKNING EGALARI

«Yoshlikda organ bilim, toshga o'yilgan naqshdir» deb bejiz aytilmagan. Jajji uka-singillarimiz bog'cha davridanoq o'qish, yozish, hisoblash va kompyuter saboqlarini qunt bilan o'rganishayotgani ham bejiz emas. Bu saboqlar ularning xotirasida qolib, matabda a'lo baholarga o'qishlarida qo'l keladi. Endilikda ular ingliz tilidagi she'rlarni ham yoddan biladilar. Mehnat va rasm chizish mashg'ulotlari bolajonlarni mustaqil ishlashga, «Iqtisod saboqlari» darsi esa mustaqil fikrlashga o'rgatmoqda. Bundan tashqari, bolalarning sog'lom o'sishlari uchun raqs va jismoniy tarbiya mashqlari muntazam ravishda olib borilyapti. Xullas, barcha bolalar bog'chalarida kelajak avlodning barkamol va sog'lom voyaga yetishi uchun har tomonlama qulay sharoitlar yaratilmoqda. Chunki ular bizning porloq kelajagimizdir.

*Uzro KOMILOVA,
«Yoshlar» telekanali
«Oq kabutar» axborot
dasturi muxbiri.*



Biz Boburjon bilan avtobusda tanishdik. UJAR sport majmuasidan mashg'ulotdan qaytayotgan ekan.

Bir qo'lida o'zining sport kiyimlari, ikkinchisida katta bozor sumkasini ko'tarib, epchillik bilan avtobusga chiqqan bolakayni o'rindiqqa cho'kkalayotgan onaxon uzundan-uzoq duo qilardi. Onaxonning samimiyl mulozamatidan yuzlari qizargan yigitcha o'zini jiddiy tutishi bilan hammaning e'tiborini tortayotgandi.

Ochig'i, meni ham unga havasim keldi. Qanday baxtiyor insonlarning bolasi ekan-a, deya u bilan yaqindan tanishish istagi paydo bo'ldi:

-Nazаримда бирор спорт то'гарагига катнайapsиз?

-Ha, tennis va suzish to'garaklariga qatnashaman. Bugun suzish to'garagidan kelayapman.

-Ko'pdan buyon qatnaysizmi?

-1999 yildan buyon.

-Nima, sportchi bo'lmoqchimisiz?

-Bilmadim, ko'p narsaga qiziqaman. Hali rasm chizishga, hali sport, yana ex-xey, bularning sanog'i yo'q. Sizning bolaligingizda ham shunday bo'lganmi?

-Ha, juda talabchan bola ekansiz-da. Meni ham

boshida tibbiyotga, keyinchalik esa adabiyotga qiziqishim ortgan. Hatto tibbiyot sohasida faoliyat ko'rsatsam-da, yuragimning bir chetida yashiringan jurnalistikaga bo'lgan muhabbat g'alaba qozongan.

Boburjon Anvarov 1991 yilda Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanida tug'ilgan. 72-litsey matabning bo'lajak 5-sinf o'quvchisi. Matematika, tarix, geografiya fanlariga juda qiziqadi.


-Meni esa yurist bo'lgim keladi. Biror nohaqliknini

munosabatlaringiz qanday?

-Ularni juda sog'indim. Hatto bitiruv kechamizda h a m m a m i z yig'ladik ham.

-Nima uchun?

-Birinchisi muallimamiz Xayri



mashg'ulotim - Zahiriddin Muhammad Bobur g'azallaridan o'qish:

Tole' yo'qi jonimga balolig' bo'ldi,

Har ishnikni ayladim - xatolig' bo'ldi.

O'z yerni qo'yib, Xind sori yuzlandim,

Yorab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi...

Suhbatdoshimiz Bobur o'zining ravon nutqi, ifodali, jozibali she'r o'qishi bilan bizni xayratda qoldirdi. Endigina o'n ikkiga qadam qo'yayotgan bu bolakayga qarab, bundan necha yuz yil muqaddam 12 yoshida taxtga o'tirgan shoh Boburning qiyofasi ko'z o'ngimda gavdalandi.

Kelajagimiz erkin, mustaqil fikrlaydigan, tarixini va bugunini qardlaydigan yoshlariimiz qo'lida ekan, osuda kunlarimiz bundan-da munavvar tonglarga ulanishi tayin.

Musallam BONU suhbatlashdi.

"YURIST" DEYISHLARI YOQADI

ko'rsam, chidab turolmayman. Oyim, dadam hali yoshsan, ko'p narsaga aqling yetmaydi, deyishadi. Ammo baribir ko'rib, ko'rmaslikka olib keta olmayman. Sinfoshlarim ham o'zaro kelisholmay qolishsa, yonimga yugurib kelishadi. Meni "yurist" deyishlari o'zimga juda yoqadi...

-Nega aynan yuristikni tanladingiz?

-Ko'pincha kattalar bolalar hech narsani tushunishmaydi, deb bizni aldashga urinishadi. Lekin ba'zida kattalarni bolalarni oldida qilayotgan ishlari, arzimagan xatoliklar uchun bir-birlarini qattiq xafa qilishlariga befarq qarab turgim kelmaydi. Agar men katta bo'lsam, albatta bolalar bilan dildan suhbatlashaman, ularning qiziqishlari, orzu umidlari bilan ko'proq tanishaman.

-Sinfoshlariningiz bilan

ustoz bizni yuqori sinfga kuzatib, ko'z yoshlari hech to'xtata olmadilar. Kechaga yig'ilgan ota-onalar ham o'quvchilik yillarini, birinchi ustozlarini xotirlab gapirishdi.

-Qanday gazeta va jurnallarni sevib o'qisiz?

-«Tong yulduzi» gazetasи, «Gulxan», «G'uncha» jurnallari bekorchilikdagи ovunchog'im. Tengdoshlarimning hayotiga oid lavhalar bilan tanishishga, qiziqish va intilishlariga oshno tutinishga harakat qilaman.

-Yana nimalarni qattiq sog'inasiz, orzu qilasiz?

-Buyuk bobomiz Bobur Mirzo umrining so'nggi kunlari o'tgan Hindistonga sayohat qilishni istayman. Betakror go'zal maqbara - Tojmahalni o'z ko'zim bilan ko'rgim keladi.

-She'rlaridan yod bilasizmi?


-Ha, eng sevimli

Litseyim - faxrim mening

O'zbekiston Milliy Universiteti qoshidagi gimnaziyaga o'qishga kirganimda xayolimdan «Bu yerdag'i ta'lim maktabdag'i ta'limdan qanday farqlanar ekan?» degan savol kechgandi. To'rt yil davomida ushbu bilim dargohida saboq olib, savollarimga javob topdim.

O'quvchilarga malakali professor o'qituvchilar dars berishar, qolaversa, Universitetning moddiy texnik bazasidan to'la foydalanish imkoniyatlari keng ekan. Maktablardan farqli ravishda, o'qituvchilar yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda dars o'tishadi. Darslarda har bir o'quvchining faol ishtirokiga alohida ahamiyat beriladi. O'qish davomida darsliklar, qo'llanmalar bilan bir qatorda ommabop kitoblardan, ilmiy texnik, adabiy jurnallardan, internet tizimidan ma'lumotlar, axborotlar olishni o'rgandik. Ona tilimiz bilan bir qatorda rus va ingliz tillarini ham mukammal o'rganyapmiz. Xorijiy tillarda o'tkazilayotgan kecha va tadbirlar, chet elliq mehmonlar bilan bo'layotgan uchrashuvlar til o'rganishimizda qo'lli kelyapti.

Sinfimizda 27 nafar o'quvchi o'qiydi. Hammalari fanlarga qiziquvchan, iqtidorli o'g'il-qizlar. Turli fan olimpiadalari, tanlovlari g'oliblari, gazeta



НУРИДИН
ХАЙДАРОВ

va jurnallarda o'z maqola va xabarları bilan muntazam qatnashib turadigan o'quvchilar talaygina. Biz 9 - sınıf bitiruvchilari oldida juda katta mas'uliyat - o'qish yo'naliшини tanlash vazifasi turibdi. Gimnaziyamizga birinchilardan bo'lib akademik litsey maqomi

topa biladilar. O'tilayotgan har bir darsni chuqr tahlil qilib, o'quvchilarning bilim doirasini sinchiklab kuzatadilar. Biz ham Bahodir akaning, shuningdek, ustozlarimiz dotsentlar Sh.G'oziyev, N.Remeyev, o'qituvchilarimiz K.Ibodullayev, D.Shoyoqubova, U.Matyuoqbovalar ishonchini oqlash uchun astoydil o'qib-o'r ganamiz, intilamiz. Ayniqsa, sınıf rahbarimiz Muattar opa G'oyibnazarovning bizga

SAFIMIZGA QO'SHILING

berilgani biz bitiruvchilarga qo'l keldi. Litseyimizda aniq, tabiiy, ijtimoiy-gumanitar fanlar yo'naliishi mavjud. O'qishimni ijtimoiy-gumanitar fanlar yo'naliishi bo'yicha shu litseyda davom ettirish niyatidaman. Ba'zi sinfdoshlarim lazerlar bo'yicha mutaxassis bo'lib, ularni tibbiyotda qo'llash niyatida izlanishayotgan b'o'lsa, ayrimlari yetuk pedagog, huquqshunos, olim bo'lishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yishgan. Bu borada tajribali ustozlarimizning beminnat sabog'i bizga juda asqotyapti.

-Har bir dars, bir imtihon. Har bir bola o'zga bir dunyo,-deydilar direktorimiz dotsent Bahodir aka Yo'ldoshev-Ishonamanki, har biringiz ilmla, aql-idrokli, vijdonli insonlar bo'lib kamol topasizlar...

Ta'lim sistemasida o'ziga xos tajriba mifiktabini yaratayotgan bu inson barchamizga «siz»lab murojaat qiladilar. Fursatlarini ayamay, har birimiz bilan dildan suhbat quradilar, ko'nglimizga yo'l

onamizdek mehribonligi, dilimizdagagi gaplarimizni ko'zimizdan o'qib olishi, hamisha to'g'ri yo'liga boshlashidan cheksiz minnatdormiz. Bizlarni o'g'il-qizlarim, deya ardoqlovchi ustozimga qarata shunday degim keladi:

*Ilm tog'i yüksak erur samo qadar,
Siz mo'tabar validasiz, dono padar.
O'rgatasiz bilimlarning qiyosi yo'q,
Qalbingizda mehri ziyo*

o'chmagay cho'g'.

*Ustozlarim, izingizdan shod ketamiz,
Ishonchingiz oqlab, kamolga yetamiz.
Ezgulikka chorlab turar oydin yo'llar,
Duolari ijobat el bizni qo'llar.*

Yuz bor eshitgandan, bir bor ko'rgan afzal, deyishadi. Aziz tengdosharim, akademik litseyimizga keling, biz yoshlarga yaratilayotgan shart-sharoitlar bilan tanishing. Ma'qul kelsa, safimizga qo'shiling.

Nuriddin HAYDAROV,
O'zbekiston Respublikasi Milliy
Universiteti qoshidagi S.Rahimov
Akademik litseyi o'quvchisi.

**ONAJONIM — USTOZIM**

olim va olimalarni tarbiya qilgan. O'zlarining mehri quyoshlari ila farzandlarining dillarini charog'on etgan. Ana shunday qalbi quyosh, bag'ri qaynoq onalardan biri mening aziz oyijonim — Xulkaroy Otajonovadir. Ular Andijon viloyati, Izboskan tumani, Lo'g'umbek qishlog'idagi 19 - mifiktabda Oliy toifali rus tili o'qituvchisi bo'lib ishlaganlar. Hozirda biz uch nafar

umrlarini o'quvchilarga bag'ishladilar. O'zlarining xushmuomalaliklari bilan o'quvchilarning, ustozlarning, qolaversa butun qishloq ahlining hurmat e'tiborini qozondilar.

Onajonim adabiyotni, san'atni juda sevadilar. Meni, singlim Mushtariybegimni, ukam Uchqunbekni adabiyotga bu qadar qiziqishimizda dadam va

oyijonimning xizmatlari beqiyosdir. Biz ularning so'zlab bergen ertaklari, she'rlarini tinglab, asta-sekin adabiyot olamiga kirib kelganimiz. Endilikda bu olämning sir-sinoatlarini yechishda ustozlarimiz bizga ko'mak bermoqdalar.

Shu o'rinda onajonimning mehr chashmalari hech qachon qurimasin deyman.

Gulruhbegim
SAYFIDDIN qizi,
A.Navoiy nomli
Respublika Nafis san'at
litseyi talabasi.



Amerika dunyoga matematik va

nazariyotchilarga nisbatan ixtirochilar va amaliyotchilar bergenini payqash qiyin emas. Bu qiziqarli qonuniyat o'zining tarixiy va psixologik izohlariga egaki, uni amerikalik olimlarning hayot yo'li misolida ko'rish mumkin. Fizik tajribalar dahosi bo'lgan

Bilimim shu yerga yetib keldikim,
Bilimsizligimni endi tushundim.

Abu Shukur Balxiy

Robert Vud ana shunday olimlardan biri edi.

U uzoq va nihoyatda baxtli umr kechirdi. Doimo ko'ngliga yoqqan ish bilangina shug'ullandi. Ajoyib xotini, bir-biridan shirin farzandlari, sadoqatli do'stlari va iste'dodli shogirdlari bor edi. U hech qachon sog'ligidan shikoyat qilmagan, moliyaviy qiyinchiliklarga uchramagan. Biroq yengib bo'lmash bir tuyg'u — qiziqish olimni qiyndardi. Qiynashga-ku, qiynardi-ya, lekin bu toifa odamlar uchun eng katta mukofot — noma'lumlik sirlarini kashf qilish baxtini ato etardi.

U o'zi sevgan ilm-fanni atrofidagi hayot xilma-xilligidan ajratib ola bilmas, buni istamasdi ham. Gohida u tadqiqotlarni yengiltaklik bilan olib borayotgandek, tajribalarni tavakkaliga o'tkazayotgandek, ayrim paytlari hazil aralash xulosa chiqarayotgandek tuyulardi. Quvnoq, hazil-mutoyibaga o'ch bu odam tajribaxonalarda ham go'yo o'yin o'ynayotgandek ko'rinar, hamkasblari va shogirdlari esa uning o'yinidagi yashirin ma'no va teranlikni tushunmay turiboq g'ayrat-shijoatidan o'rnak olishardi.

Robert talabalik chog'ida pansion bekasi nonushtani kechagi ovqat goldig'idan tayyorlayotganini gumon qildi. Shunda u qovurdoqqa bezarar xlorli litiyni qo'shib qo'yadi va

ULG'AYMAGAN BOLALIK



qo'lbola sarob hosil qiladi.

Ko'pchilik baliq ovlaydi. Vudni esa baliq suv ostidan qanday ko'rishi qiziqtiradi va u «Baliq ko'zi» nomli fotokamera yaratadi.

Bir necha qadam narida yerga yashin urilganida oddiy odam nima qiladi? Pana joyga yuguradi, albatta. Vud esa... tajribaxonaga yugurdi: 8 funt qo'rg'oshinni eritib, ulkan elektr razryadi urilgan yerda paydo bo'lgan chuqurlikni to'ldirdi. Keyin qotib qolgan ma'danni qazib oldi, bu yashinining o'ziga xos «dastxat»i edi.

Olim oldida turgan muammolarni doimo eng oddiy va amalga oshirish mumkin bo'lgan usulda hal qilardi. Uydagi tajribaxonasi ombor va

Ushbu ruknni Rustam OBID olib boradi

ertasiga spektroskop yordamida bekani mulzam etadi.

Bu dunyoda oshiq borki, mahbubasiga maktub bitadi. Robert esa bo'lg'usi kelinga fonografning sevgi izhor etilgan mum valigini undan bo'shagan qutichaga solib jo'natadi.

Sahroda ko'rinuvchan saroqlar haqida behisob marta yozilgan, sabablari tushuntirib berilgan. Robert esa tunuka ustiga qum to'kib, tagidan gazli gorelka bilan qizdiradi va o'yinchoq palmalar o'rnatib,

sonlaridan birida bu tajribaxona to'g'risida shunday deb yozadi:

«... Molxonada uy hayvonlaridan boshqa biron nima bo'lishini xayolingizga ham keltirmaysiz, professor esa darvozalarni lang ochib, ichkaridagi asbob-uskunalarni ko'rsatadi».

Vud asboblaridan birini «qabr spektroskopi» deb ataydi, chunki uning uchun taglik sifatida chindan ham qabr toshini sudrab kelgan ekan. Boshqa bir spektroskopning uzun va tor quvuri ifloslanib qolganida esa u boshini qotirib o'tirmadi. O'sha yerdan o'tib ketayotgan bitta mushukni shartta

tutib, quvur ichiga tiqdi-yu og'zini berkitib qo'ydi. Jonivor bechora quvurning narigi uchiga sudralib borishiga va yo'l-yo'lakay tuklari bilan barcha chiqindilarni «supurib» chiqishiga to'g'ri keldi.

Olimning quvnoqligi, har narsaga qiziquvchanligi tuganmas edi. U yaxtada suzishga, chang'ida uchishga, fotografiyaga va to'lqinlar bo'ylab taxtada sirpanishga berilib ketadi. 1899 yoldayoq bug' bilan ishlovchi dvigatelli avtomobil sotib oladi. Moybo'yoq va akvarelda surat chizadi. Karnavalga tayyorlangan libosi uchun mukofot oladi. «Qushlarni gullardan qanday qilib farqlash kerak?» nomli kitobcha yozadi. Va u 20 martadan ziyod nashr etilib, boshqa tillarga tarjima qilinadi. U 50 yoshida ham doimo yoshlar orasida bo'lib, har xil o'yinlaru sho'xliklarni o'yab topishga nihoyatda usta edi.

Vudlar oilasi sayru sayohatni sevar, safarlari bir-biriga ulanib ketaverar edi. Olim yoshligidanoq jurnalist sifatida

Moskvaga kelgan, Nijegorod yarmarkasida bo'lgan, yangi qurilgan transsibir magistrali bo'ylab sayohat qilgan. Germaniya, Fransiya, Angliya, Italiya, Misr, Meksika, Gavay orollari - xullas, ikki dunyo bir qadam... Vud Atlantika okeanini necha marta kezib o'tganini sanab chiqish qiyin, Chunki har ikki-uch yilda Yevropaga qatnab turardi-da. Quvnoq, ko'rakam, bejirim

Buyuk kishilar olmos yanglig' noyob va shu qadar serjilodir.

Sharq naqli

og'zidan trubka tushmaydigan bu amerikalik zerikkanidan dunyo kezib yurgan boqibeg'am, sho'x-shaddod boyvachchaning o'zginasi edi go'yo. Unga qarab turib, ayni ana shu odam fizik optikaga ulkan hissa qo'shganiga, bug'lar va gazlarning rezonansli nurlanishi bo'yicha butun jahon tan olgan ilmiy tadqiqotlarning muallifi, ultrabinafsha va infraqizil nurlarda birinchi fotosuratlarni ola bilgan olim, yorug'likning interferensiya, poliarizatsiya, defraksiya va boshqa xil jumboqlarining nozik tadqiqotchisi ekaniga ishonish qiyin bo'lgandir hoynahoy.

Quvnoq va hazilkash bu odam 32 yoshida London qirollik jamiyatining Nyuton hamda Faradey kabi olimlar so'zga chiqqan minbariga ko'tarildi va uning ma'rzasini Angliyaning Reley, Kruks, Dyuar singari yirik olimlari tinglashdi. Sho'x-shaddod va o'yinqaroq bu odam 33 yoshida J.Gopkins universitetining fizika professori bo'ldi. Beg'am sayyoh yiliga o'ntadan ilmiy ish e'lon qilardi.


Yozuvchi Vilyam Sibrukning Robert Vud hayoti haqida yozgan ajoyib kitobi akademik Sergey Ivanovich Vavilovning tashabbusi bilan rus tiliga o'girilib, 1946 yili, Vudning vafotidan o'n yil avval nashr etilgan. Mazkur kitobida Sibruk shunday deb yozadi: «*Robert Vilyams Vud o'ta iqtidorli amerikalik bolakay, lekin umri bo'yif ulg'aya olmay qolgan*». Ushbu ta'rif nihoyatda aniq va o'rinni. Demak, u holda Robert Vud ismi ilm-fan tarixiga abadiy yozib qo'yilgan yagona bolakaydir.

Ta'til kunlari bo'lishiga qaramay, oyijonim nimagadir barvaqt uyg'otdilar. Avvaliga uyqudan ko'zimni ocholmay, ancha yotdim. Oyijonimning: «Turaqolinglar, sizlarni Toshkentga olib boraman» degan gaplarini eshitib, ko'zim moshdek ochilib ketdi. Ukam Saidakrom ikkimiz baravariga «Ur-re» deya qichqirib yubordik...

Hozir poytaxtdamiz. Har kuni biror joyga olib boradilar. So'lim saylgochlarda, hayvonot bog'ida, Amir Temur muzeyida, Sharsharada, qisqasi, shaharning xushmanzara joylarida bo'ldik. Ayniqla, quvnoq arg'imchoqlar



TOSHRENT BIZGA JUDA YOQDI



bizga juda yoqdi. «Osmonu falak» deb nomlangan charxpakalda shaharni yuqoridan tomosha qildik. Yegan shirinliklarimizu muzqaymoqlarni aytmay ham qo'yaqolay. Xullas, Toshkentda qilayotgan sayohatimiz bizga juda yoqdi. Bizning quvonchimizga sherik bo'layotgan oyijonim Zilola opa Sharipova ham maroqli dam olyaptilar. Axir, yil davomida 1-sinf o'quvchilariga saboq berib, ular ham juda charchagan edilar-da...

Darvoqe, yaqinda bobom Aminjon ota va buvijonim Adolat ayalarning

tug'ilgan kunlarini nishonlaymiz. Ularni sevimli gazetam «Tong yulduzi» orqali samimiy tabriklayman. Biz nabiralari baxtiga sog'-omon yurishsin. Mening katta buvum, ya'ni, buvimning onalari ham hayotlar. «Qariyalarni qardlash yili» munosabati bilan ularni ham qutlayman. Uyga qaytsam, issiq bag'rlariga o'zimni otib, mayin, muloyim yuzlaridan albatta o'pib qo'yaman.

*Charos AMINJONOVA,
Qashqadaryo viloyati, G'ijduvon
shahridagi A.Qodiriy nomli
maktabning 2-sinf o'quvchisi.*



Bolalar, siz Oppog'oy haqidagi ertakni yaxshi ko'rsangiz kerak-a? Men ham Oppog'oy haqidagi ertakni va shu ertak asosida olingen multfilmni juda yaxshi ko'raman. Ayniqsa, multfilmni qayta-

q a y t a
ko'raveraman-
ko'raveraman,
sirayam zerikmayman.
Ammo, hozir gap multfilmda emas, balki Oppog'oy haqida. Yaqinda men aka-uka Grimmlar judayam mahorat bilan yozgan ertakdagi Oppog'oy haqiqatan ham hayotda yashagani haqida o'qib qoldim. Va bu haqda tengdoshlarim ham bilishsa bo'larkan, deb o'ylab qoldim.

Shunday qilib, aka-uka Grimmlarning ertagida tasvirlangan Oppog'oy Bavariyadagi Lor shaharchasi yaqinidagi Ertal qal'asida yashagan bo'lib, uning haqiqiy ismi Mariya-Sofiya asta-sekin ulg'ayib, 14 yoshga kiribdi. Uning kun s a y i n go'zallahib

Shahzoda unga aks-sadoga o'xshab, oldida turgan odamning so'zlarini qaytaradigan akustik ko'zgu sovg'a qiladi. Bu ko'zguni bavariyalik mohir oynasoz ustalar yashagan bo'lib, u nafaqat «gapirar», balki esa o'rmonda tentirab yura-yura, oxiri pakana konchilar yashaydigan kulbaga borib qolibdi. Bu pakana konchilar o'sha ertakda tasvirlangan gnomlar bo'lib, ular Ertal qal'asidan sal nariroqdagi mis va kumush konlarida

tobutga solishadi. Ammo shunda uning sezilar-sezilmas nafas olayotganini payqab qolishadi va malikaga dorivor giyohlar damlamasini ichirishadi, zaharning kuchini qirqadigan o'tlarning damlamasida cho'miltirishadi.

M a l i k a
s o g ' a y g a c h ,

do'stlarining maslahatiga ko'ra qasrga qaytadi va otasiga bo'lgan voqeani aytib beradi. Qizining hikoyasidan qattiq ta'sirlangan shahzoda xotinini qattiq jazolaydi va qasrdan haydab yuboradi.

Ana shunaqa gaplar! Bari-bir adolat tantana qilibdi-da! Odamlar esa bu voqeani qo'shib-chatib, ko'pirtirib yuborishadi va tez orada malika tirik afsonaga aylanadi. Aka-uka Grimmlar esa bechora go'zal malika, uning hasadgo'y onasi, sehrli oyna va mehribon pakana konchilar haqidagi hikoyadan shunaqangi ta'sirlanishadiki, bu voqeani ertakka aylantirishadi va Mariya-Sofiyaning o'limidan bir yil oldin uning huzuriga - Ertal qal'asiga mehmonga borishadi. Mariya-Sofiya umrining oxirigacha Ertal qal'asida yashagan va 70 yoshida olamdan o'tgan ekan.

Shundan keyin ham ertaklar zamirida haqiqat yashirin ekanligiga ishonmay ko'ring-chi! Men esa bu voqeani o'qiganidan so'ng doim haqiqatni so'zlovchi va doim adolat tantana qilib, yovuzlik yengiladigan ertaklarga bo'lgan mehrim yanada oshdi.

Gulnoz TOJIBOYEVA,
Poytaxtimizdagi
252 - maktabning
6 - sinf o'quvchisi.

ERTAK ZAMIRIDAGI HAQIQAT

qavariqligi tufayli qarshisidagi semiz xonimni ham nozik-nihol qilib ko'rsatar ekan. Shu tufayli bu «sehrli» oynani aslzoda xonimlar juda qadrlashar ekan.

Jajji malika Mariya-Sofiya asta-sekin ulg'ayib, 14 yoshga kiribdi.

Uning kun
s a y i n
go'zallahib

ishlasharkan. Bo'yi 50 santimetrcha keladigan bu pakana konchi - «gnom»lar ularni qorong'i shaxtada darrov ko'rishsin uchun ochiq rangli - qizil, sariq, yashil qalpoqlar kiyib yurisharkan.

P a k a n a
k o n c h i l a r
M a r i y a -
S o f i y a g a y a x s h i
m u o m a l a
q i l i s h i b d i , u n g a
y o r d a m



borayotganini ko'rgan o'gay onasi undan qutulishga qaror qilibdi va saroy ovchisiga Mariya-Sofiyani o'rmonga olib borib o'ldirishni va jigari bilan o'pkasini olib kelishni buyuribdi.

Ovchi begunoh qizaloqni o'ldirishni istamabdi, chunki ujuda ham rahmdil ekan. Keyin yovvoyi qobonni o'ldirib, jigari va o'pkasini malikaga olib boribdi. Mariya-Sofiya

berishibdi. Ammo o'gay qizining tirikligidan xabar topgan Klaudia-Elizabetha alamidan yorilib ketay debdi va kampirlarning kiyimini kiyib, pakana konchilarning uyiga kelibdi-da, Mariya-Sofiyaga bangidevonanining sharbati singdirilgan mevani yediribdi.

Mariya-Sofiyani o'lgan deb o'ylagan do'stleri uning jasadini bu yerlarda odat bo'lib qolganidek shisha

(Davomi. Boshi o'tgan sonda.)

4-mashq

Sinonim so'zlarga oid test savollariga to'g'ri berilgan javoblarni toping!

Exercise 4

Give the best interpretation to the following words:

Find the appropriate synonyms to the following words:

Confidence

- a) secrecy
- b) dependency
- c) self-reliance

Largely

- a) generally
- b) openly
- c) in common

Jeopardize

- a) suit
- b) support
- c) threaten

Gain

- a) to win
- b) to approve

Involve

- a) to contain
- b) to bring
- c) to possess

5-mashq

Quyida e'tiboringizga diplomatik korpuslarga oid yangi tekstni havola etamiz. Tekstni o'qib, ingliz tilida jumlan qanday tuzish, so'z turkumlari, gap bo'laklari, fe'l zamonalari hamda artikllarni o'z o'rnida to'g'ri ishlatishni o'rganing.

Kelajakda elchi bo'lish, umuman diplomatiya sohasida ishlashni istagan o'quvchilarimiz uchun bu tekst juda qiziqrli bo'ladi degan umiddamiz.

Tekstni lug'at

yordamida tarjima qiling!

Exercise 5

Give the best interpretation to the following text!

DIPLOMATIK KORPUS THE DIPLOMATIC CORPS

At the capital of a state, there is a diplomatic

procedures have to be agreed upon by all the states to insure the negotiating rights representatives to other countries, to international conferences, and to international organizations. At least six of the eight years of negotiations for the Peace of Westphalia were concerned with reaching agreement on the procedures for

procedure became more established and generally accepted, international conferences began to accomplish their work with greater dispatch.

By the time of the Congress of Vienna (1814-15) European states were able to reach formal agreement on a set of rules for the conduct of diplomatic relations. The treaty on diplomatic immunities formulated at the Congress of Vienna and the Congress of Aix-la-Chapelle (1818) not only the effect of codifying the principles of diplomatic privileges and immunities that had been in practice since the earliest times, but laid down the basis for future diplomatic intercourse. This basic instrument became the guide and source of authority for the conduct of diplomatic relations until the Vienna Convention on Diplomatic Relations was adopted by the International Conference on Diplomatic Intercourse and Immunities in April 1961. The new Vienna Convention was adopted to make such modifications and changes as were necessary in a world of many more states than existed at the time of the original Vienna Convention.

(Davomi bor.)

Sabog'imizni
Shohruhbek
KARIMBEKOV
tayyorladi.



community made up of the various diplomatic agents accredited to that state by other states other states of the world. The United States maintains an embassy or legation in a hundred or more states, headed by an ambassador or minister and staffed by members of the foreign service who are professionally trained and selected for this work. Foreign ambassadors and ministers to a given country are known collectively as the diplomatic corps, presided over by a senior member of the group, informally referred to as the dean.

DIPLOMATIC PROCEDURES

It is apparent from the scope of numbers and complexity of diplomatic problems, and representatives that

negotiating the treaty. The participants had to agree on the place of the meeting, the meeting, the diplomatic etiquette and ceremony to



be observed, the method of summoning the conference, the means of protecting the immunity of the delegates' credentials, and the extent of their authority to negotiate on behalf of their governments. But as practices and agreements on



(Ikkinci maktub.)

BUYUK XITOY DEVORI

Nixo, naynay! Assalomu alaykum, buvijon! Xitoya kelganimizning ikkinchi kuni. Bugun biz siz ertakda aytib bergeningiz, dunyodagi inson qo'li bilan yaratilgan mo'jizalardan biri — «Saddi Chin» devori — Buyuk Xitoy devoriga chiqdik. Siz ulug' bobomiz Alisher Navoiyning «Saddi Iskandariy» dostonidan so'zlab bergeningizda Chin (Xitoy) mamlakati aholisini Ya'juz zulmidan qutqarish uchun podshoh mis, qalayi, rux, temir va tog' toshlaridan juda mustahkam va juda baland devor qurdirgani haqida aytib bergen edingiz. Navoiy hikoya qilgan «Saddi Chin» tarixda «Buyuk Xitoy devori» nomi bilan mashhur bo'lgan ekan. Uning shuhrati butun dunyoga yoyilgan bo'lib, Navoiy kabi shoir

bobolarimiz ularni asarlarida eslab o'tganlar. Aslida uning tarixi qadim-qadim zamonalarga borib taqalarkan...

Buyuk Xitoy devori Pekindan 40-50 km. uzoqlikda bo'lgani uchun ungacha avval mashinada bordik. Bora-borguncha adamning do'stlari Li shu-shu (Li amaki) bizga Buyuk Xitoy devorining tarixidan gapirib berdi.

Qadim-qadim zamonalarda, miloddan avvalgi 4-3 asrlarda ko'chmanchi qabilalar hujumidan bezigan imperator Sin Shi Xuandiy Xitoyning shimoli-g'arbiy chegaralaridan dushman o'ta olmaydigan karvon savdo yo'llarining xavfsizligini ta'minlaydigan baland va uzun mudofaa devorini qurish haqida buyruq beribdi.

Imperatorning ayonlari shimoliy chegaraga lak-lak askarlar-u, behisob qarollarni haydab kelishdi. Buyuk Xitoy devori qurilishida jami 2

milliondan ortiq kishi ishtirok etibdi.

Ular kechasiyu kunduzi i s h l a s h g a n .

БОУВИОНГА

R i v o y a t d a
aytilishicha, dastlab qancha urinishmasin, tiklangan devor qulab ketaverган. Shunda imperatorning

go'zal bir qiz bilan to'yi bo'layotgan Van degan yigitni topib kelishibdi. Uni qurban qilib, qurilayotgan devor ichiga mumlab ko'mib qo'yishibdi. Shundan keyin devor

qulamaydigan bo'libdi. Asia-sokin uning uzunligi 10 ming lidan ham oshib



ketibdi. (Buvijon, bu qanday o'Ichov ekan, deb hayron bo'layotgandirsiz. Men ham so'rab bilib oldim: 1 li - 400 m. ga teng ekan), Shundan keyin dunyodagi bu eng uzun va mustahkam xitoycha «Vanli chongchang» deb atalib ketibdi. Bu «10 ming li uzunlikdagi devor» degani ekan. Buvijon, Van ismi Xitoyda xuddi bizdagil Ahmad ismi kabi ko'p uchrar ekan. Li shu-shu Buyuk Xitoy devori haqida unga o'xhash

rivoyatlar juda ko'pligini aytdilar. Bu Buyuk devorni xitoyliklar bir necha

rosa boshi qotibdi. Nima qilish kerak?! Imperator mamlakatidagi hamma donishmandlarni chaqirib maslahat qilibdi. Ular ichidan eng keksa d o n i s h m a n d imperatorga:

-Menga ayon bo'lishicha, devor qulamasligi uchun mamlakatimizda yangi tur mush qurayotgan yigit yoki qizni qurban qilib, devor ostiga ko'mishimiz zarur. Ana shundagina ish yurishib ketadi...

Imperatorning xizmatkorlari d o n i s h m a n d aytganidek darrov



asrlar davomida qurishgan ekan. Devor qurilishining bunday sekin borishiga sabab, o'sha vaqtarda texnikaning rivojlanmaganligi bo'lsa kerak. Ikkinchisi tomondan esa ko'chmanchi qabilalar tez-tez hujum qilib, devorni buzib ketaverishgan ekan. Qor-yomg'irlar ham uni yil sayin nuratib borgan ekan. Xitoy devori miloddan avval 2-1

a s r l a r d a

ustki sathining kengligi 5-5,5 metr keladi. Ko'rningizmi ustidan bemalol jang aravalari, saf-saf qo'shinlar, otliqlar ham yuraverishi mumkin. Ertakda to'g'ri aytgan ekansiz, devor asosan yo'nilgan granit toshlar, g'ishtlar va pishitilgan loydan yasalgan ekan. Suratda ko'rinish turgan devor

MARSHOBALAR

g'aiga tomon 500 km. ga uzaytirilgan ekan.

Buvijon, Xitoy xalqi o'zining Buyuk devorini butun tarixi davomida qurban ekan desa ham bo'ladi. Chunki uni qurish va mustahkamlash ishlari 14-15 asrlarda jadal davom etgan ekan. Biz shu uzun devorning faqat bir qismiga, Pekin yaqinidagi qismiga chiqdik. Bu yerlar Xitoy xalqi ozodlikka chiqqanidan so'ng, ya'ni yigirmanchi asrlarning elliinchisi yillarida ta'mirlangan ekan. Buyuk Xitoy devorining eng katta baland nuqtasiga chiqib, binokl bilan qaraganingizda ham, buvijon, uning oxiri ko'rinnmaydi. Kartani olib, tasavvur qiling-a, buvijon, Sariq dengizdagi Lyaodun qo'ltig'idan boshlangan bu devor G'arbga tomon besh-olti ming kilometrgacha cho'zilgan ekan! Shu tarzda u biz turgan, suratlar olgan Peking yaqin joyda janubiy-g'arbga burilar ekan, so'ng Su'jou shahridan g'arbda Gansu o'lkasidagi Izya yuyguan qal'asida tugarkan.

Suratlarga qarang-a, buvijon! Devorning balandligini, qalinligini, kengligini ko'ryapsizmi? Balandligi 2-3 qavatli bino balandligi bilan teng. Ayrim joylari undan ham baland! Devorning past qismi poydevorining kengligi 6,5 metr, biz suratga tushgan



ustidagi binolarga o'xshagini bu minoralar, istehkomlardir. Ilgarilari u yerlarda askarlar qo'riqchilik qilganlar. Hozir esa sayohatchilar kirib bemalol tomosha qilishyapti, esdalik sovg'alarmi ham asosan shu yerlardan sotib olsa bo'ladi. Adam hammamizga chiroyli futbolka va bo'yinga osadigan mis medallar olib berdilar. Ularga «Men Buyuk Xitoy devorini zabit etdim» deb yozilgan ekan. Medallarga esa o'sha yerning

o'zida «Komron» va «Oyzoda» deb ismimizni yozib berishdi. Toshkentga borganimda ularni sizga albatta ko'rsataman. Butun dunyodan turistlar intiladigan joy bo'lgani uchun ham bu yerda sayr qilib yurgan turli millat kishilarini ko'plab ko'rish mumkin. Xuddi katta sayilgohga o'xshaydi.

Biz Buyuk Xitoy devori ustida yurganimizda ko'p kishilar bizga havasi kelib qarayotganini sezdim. Ko'plari Oyzoda bilan meni shirinliklar bilan siylashga, biron esdalik buyum sovg'a qilishga harakat qilishardi.

Xitoydagagi bolalarining aka-ukalari, opa-singillari bo'lmas ekan. Mening esa singlim ham, ukam ham bor! Yana biz bu yerda sizga, buvamga, ammajonga, amakimga, xolalarimga sovg'a o'lganimizni ko'rib, Li shu-shuning juda havasi keldi. Chunki Xitoy bolalarining bunday qarindoshlari ham deyarli bo'lmas ekan. Xitoyda bitta oila faqat bitta bola o'stirishi mumkin ekan. Bolalar aka-ukalarsiz zerikib ketmaydimi, buvijon? Men ham, Oyzoda ham sizlarning hammangizni yaxshi ko'ramiz, buvijon! Biz borguncha bittayam kasal bo'lmaning.

Buvijon, biz shunday qilib kuni bilan Buyuk Xitoy devorini tomosha qildik. Li shu-shuning aytishiga qaraganda Buyuk Xitoy devori kosmik kemadan ko'rindigan yer yuzidagi ikki inshootning biri ekan. Yana biri qaysi? Agar shu savolga javob topolmasam, albatta birgalikda javob topamiz-a?

Shu bilan xatimni tugataman. Biz ertaga Szinyanga, adam o'qiydigan shaharga ketyapmiz. U yerda ham sizga xat yoza olamanmi deb so'rasam adamlar «Internet, elektron pochta bilan dunyoning hamma yeridan turib ham Toshkent bilan bir zumda bog'lansa bo'ladi», dedilar. Yana xat bilan ko'rishguncha, xayr, buvijon!

*Sizni sog'inib qoluvchi
Komron AMINOV.*



TOYCHOQNING HASRATI

Eh, odamlar, odamlar,
Qayda qoldi u damlar?
Nechun kelmas biz tomon,
Chaqqon, o'ktam qadamlar?

Bitmasdi bizsiz yumush,
Rangimiz qora, kumush.
Bizdan mamnun edingiz,
Afsus, o'zgardi turmush.

Shahar ko'chalariga,
Avtoulovlar ega.
Beminnat do'stingizni,
Siz unutdingiz, nega?

Ma'yus boqaman oyga,
Va ortga qaytmas soyga.
Lek bilaman sizlarda,
Mehr bo'lak biz toyga.

*Nigora ESHIMOVA,
Toshkent shahur, Sobir
Rahimov tumanidagi arab
tiliga ixtisoslashgan
29 - o'rta maxsus
maktabning
7 - «V» sinf o'quvchisi.*



YOZDA SOZ-DA!


Anhorlarda cho'milib,
Shodliklarga ko'milib,
Yozgi ta'tilda biram,
Olmoqdamiz yaxshi dam.

Tog'u toshda yurib biz,
O'ynab-kulib o'g'il-qiz,
Ko'ngillarni xushlashib,
O'ynaymiz qo'l ushlashib.

Yozda biz kuchga to'lib,
Chaqqon va sog'lom bo'lib,
Sentyaborda sog'-omon,
Boramiz maktab tomon.

*Iroda XAKIMOVA,
Shayxontohur tumanidagi
320 - maktab o'quvchisi.*

Bizning to'garak



VATAN

Vatan daraxt, bizlar undan
nishonamiz,
Shuning uchun unga har dam
ishonamiz.
Biz bolalar shu Vatanning
erkasimiz,
Ajib yurtning kelajagi,
ertasimiz.

Muhayyo OCHILOVA,

Toshkentdagi 131 - maktabning 9 - sinf o'quvchisi.

*Poytaxtimizdagi Orom nomli
maktab-bog'chaning 4 - «J»
sinf o'quvchisi Shahnoza
RIZAYEVA toychoqning
rasmini chizib yuboribdi.*



NEGA XAKKA YASHAR YAKKA?



Qadim-qadim zamonda,
Uzoq janub tomonda,
Bor ekan ulkan bir tog',
Tog' bag'rida so'lim bog'.

Zangor osmon ostida,
Cho'ng qarag'ay ustida,
Bulbulu qizilishton,
Chumchuq, Xakka, Maynaxon.

Yashar ekanlar inoq,
Kunlar o'tarkan quvnoq.
Lek besh barmoq teng emas,
Uchrar hayotda nokas.


Yolg'onchi-yu firibgar,
Yaxshini aldab yurar.
Bu so'z mazmuni to'g'ri,
Xakka-chi, ekan o'g'ri.

Qoyillatar bu ishni,
Bahormi, yozmi, qishmi.
O'g'irlik nonin yerkan,
O'ziga o'zi derkan:

«Xakkaxon qo'rqlay o'mar»,
O'marib, yerga ko'mar...
Bir kun suhabat chog'ida,
Chumchuqchaning bog'ida.

Kuldi-yu mitti tumshuq,
Shunday deb qoldi Chumchuq:
- Maynaxon ekan puxta,
Hunari ko'p go'rso'xta.

Bir dona munchog'i bor
Qip-qizildir go'yo nor.



MARG'ILONIM QIZLARI

Marg'ilonim qizlariga,
O'zga qizlar yetolmaydi.
Uning xusnin ko'rib aslo,
Yigitlari ketolmaydi.

Bol tomadi so'zlaridan,
Nur yog'ilar yuzlaridan.
Asta-asta qadam tashlar,
Gul ochilar izlaridan.

Atlas ko'ylak yarashadi,
Ko'rgan ko'zlar qamashadi.
Boshlarida tagdo'zi,
Jon olar shirin so'zi.

*Munojat KARIMOVA,
Farg'ona viloyati,
Toshloq tumanidagi
10 - o'rta maktabning
10 - sinf o'quvchisi.*

O'sha munchoqni Mayna
Saqlarkan bo'sh
choynakda...

Xakka uchib ketibdi
«O'sha joy»ga yetibdi.
Choynakni asta ochib
Munchoqni olib qochib.

Uchib boribdi soyga,
Qo'yibdi pana joyga.
Chumchuqcha payqab buni,
Do'stlarga aytdi uni.

Xakka siri bo'ldi fosh,
Bo'lak bo'ldi nonu osh.
Shundan buyon u Xakka,
Yasharkan doim yakka.

*Madina Pardayeva
MUHAMMAD qizi,
Qashqadaryo viloyati,
Shahrisabz tumanidagi
102 - maktabning
9 - sinf o'quvchisi.*

Tabiat darsida...


O'qituvchi: - Qani, G'ani ayt-chi, bizni o'rabi turgan narsa nima deb ataladi?

G'ani: - Chaqaloqlarni yo'rgak, bizni esa ko'yak o'rabi turadi.

Chet tili darsida...

O'qituvchi: - Qani bolalar aytinlar-chi, til o'rghanish nimaga kerak?

O'quvchi: - O'rghanib olmasak, uni pishirayotganda qiynalib qolamiz. Qattiq qaynab ketsa, qotib qoladi.



jo'mragi buralganda...

Ximiya darsida...

O'qituvchi: - Suv qanday hosil bo'ladi?

O'quvchi: - Yomg'ir



Har tong ko'nglimizda bir olam orzu-havas bilan uyg'onamiz. Ajib tongning tarovati, havoning musaffoligi, bulbullarning xonishi dilimizga xush yoqadi.

B e o z o r
musichalarning
g ' a m g i n
kuylayotgandek ovoziga hech qulqoq tutganmisiz? Ular nimalar haqida kuylashayotganini hech o'ylab ko'rghanmisiz? Men bu haqda juda ko'p o'layman, hatto rivoyat ham eshitganman.

... Qadimda chor atrofi suv bilan o'ralgan bir

Matematika darsida...

O'qituvchi: - Daraxtda 8 ta chumchuq o'tirgan edi. Ikkiasi uchib ketdi. Nechta

shahar bo'lgan ekan. Ariqlar atrofi chamanzor bo'lib, turfa gullarning xushbo'y hidi shaharga taralib turarkan. Ana shu shaharchada bir go'zal Musicha va uning akasi Musolar yashasharkan. Aka-singil juda inoq,

yoqqanda, vodoprovod qush qoldi?

O'quvchi: - Qolmadni.

O'qituvchi: - Nima uchun?

O'quvchi: - Chunki men daraxtga tosh otgandimda.

Fizika darsida...

O'qituvchi: - Tortilish va itarish kuchiga misol keltiring.

O'quvchi: - Oyim qanchalik dars t a y y o r l a s h g a undamasinlar, baribir bir bahona topib, ko'chaga chiqib ketaveraman.

Hilola

*EGAMBERDIYEVA,
Toshkent shahar,
Akmal Ikromov
tumanidagi
312 - maktab
o'quvchisi.*

TOPISHMOQLAR

Sariq gulim patir non,
Ichi to'la g'ij-g'ij don.



Toqqa go'yo
gilam to'shalgan.



Otasi bukri tog'a,
Onasi yoyma xola,
Bolasi bolday asal.



*Nargiza MA'MUROVA,
Toshkent shahar,
Shayxontohur tumani.*

ketidan oylar, yillar o'tsa
ham Musodan darak
bo'lmabdi.

*Bechora
s i n g i l
akasining
kelishini intizor
kutib va zor-zor
yig'larkan. O'zining*

niyatida o'zga
s h a h a r l a r g a
otlanibdi.

- Akajon, menga
zebu ziynatlar,
sarpolar
k e r a k
emas. Har
tong sizni

**MUSONING MUSIQASI**

baxtiyor ekanlar. Musicha ulg'ayib, chiroqli va odobli qiz bo'lib kamolga yetibdi. Kunlardan bir kun Musichaga sovchilar kelishibdi. Muso singlisiga bo'lgan mehr-muhabbatini isbotlash uchun unga zebu ziynatlar, sarpolar olib kelib, oyoqlari ostiga to'kish

salomat ko'rsam, yonimda ekanligingizni his qilsam, shuning o'zi menga katta baxt. Har qanday boylikdan a'lo,- debdi Musichaxon akasining ketishiga qarshilik qilib. Lekin Muso uning gaplariga qulqoq solmay, olislarga uchib ketibdi. Bechora singil uyda yolg'iz qolibdi. Oradan kunlar, ular

g'amgin qo'shig'ida
«Muso to'y keltirur» deya
kuylarkan.

*Ibragimova Dildora
ILHOM qizi,
Surxondaryo
viloyati, Termiz
shahridagi
1 - umumi o'rta
ta'lim maktabining
7 - «A» sinf
o'quvchisi.*

Tengdoshlarin ijodi

ERKINMAN YO'LIMDA GULDAN POYONDOZ



Shahlo Xudoyberdiyeva — kitoblik 12 yoshli qizaloq. Bu yil 7 - sinfni bitirdi. Maktabda «a'llo»ga o'qiydi. Shu yoshida yana she'r mashq qiladi. Shahloning mashqlari menga ma'qul bo'ldi. Fikrlarini ramzlar vositasida ifodalashga intiladi. She'r deb bizga taqdim etayotganlari samimi, ravon. Biroq u hali she'riyatning murakkab ilmini o'rganishi, badiyatning sehrli saboqlarini o'zlashtirishi lozim. Shahlo sabot bilan mehnat qilsa, o'qib-izlansa, yaxshi shoira bo'lishi mumkin. Iloyim bo'lsin!

«Qaldirg'och» nomli she'riy to'plami ham chiqqan.

Rustam MUSURMON,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
she'riyat kengashi ma'sul kotibi.

TILAK

- Ko'zimda moviyrang osmonning aksi,
- Dilimda erk otli qushlarning raqsi,
- Quvonchim baxt, omad keltirar shaksiz,
- Vatandosh, shodligim qabul et!
- Erkinman yo'linda guldan poyondoz.
- Shirin-shakar so'zim sevinchdan andoz,
- Bu kun lovullagan yurak to'la roz —
- Vatandosh, tinchligim qabul et!
- Tilimdan tushmaydi yangroq bir qo'shiq,
- Zavq berar ko'nglimda Vatan degan ishq,
- U mening borlig'im bag'ri bir o'tlig' —
- Vatandosh, borlig'im qabul et!

*Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi Adash Xo'jayev nomli
5 - o'rta maktabning 7 - sinf o'quvchisi.*

BULUT

Qovog'ingiz ocha qoling, bulut bobo,
Yo tomchingiz socha qoling, bulut bobo,
Qiynab qo'y mang nozikkina vujudimni.

Qovoq uyish yarashmaydi ko'k qiziga,
To'lgan ko'ngil to'kilmasa ayb o'zida,
Timab qo'y mang nozikkina vujudimni.

Farzandingiz — tomchilarga qo'yib bering,
Dardingizni dardsizlarga bo'lib bering,
Bo'sh qo'y mang hech
qalb atalmish ma'sum dilni.

Shahlo XUDOYBERDIYEVA,
5 - o'rta maktabning 7 - sinf o'quvchisi.

ESHITMADIM DEMANGLAR!

"Ijod Dunyosi" nashriyot uyi 2002-2003 o'quv yili uchun quyidagi kitoblarni chop etmoqda:

1 - sinf "Alifbe"si, 3 - sinf uchun "O'qish kitobi" (o'zbek, qozoq, turkman tillarida), 7-sinf o'zbek o'quvchilari uchun "Русский язык", 8 - sinf uchun "Ona tili", "Fizika" (o'zbek, rus, qozoq, tojik, qirg'iz, turkman tillarida), 8 - sinf uchun "Ozbek tili" (muallifi R. Yo'ldoshev va boshq.) rus, qozoq, tojik, qirg'iz tilli o'quvchilar uchun. Kitoblarni "Ijod Dunyosi" nashriyot uyidan, kitob do'konlaridan sotib olishingiz mumkin.

Manzilimiz:
700129, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30 uy.

O'zbekiston bolalari va
o'smirlarining gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI DAVLAT MATBUOT QO'MITASI, O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI XALQ TA'LİMİ VAZIRLIGI, «KAMOLOT» YOSHLAR İJTIMOY HARAKATI, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» XAYRIYA JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:

Umida ABDUAZIMOVA
TAHRİR HAY'ATI:
Shuhrat AHMEDOV, Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa MUSURMONOVA, Qahramon QURONBOYEV, Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinnbosari), Po'lat MO'MIN, Mukarrama MURODOVA, Tohir MULLABOYEV, Ergashvoy SARIQOV.

Noshir «Ijod dunyosi» nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi» nashriyot uyi kompyuter bo'limida terib sahilafandi.
Hajmi A-3, 2 bosma taboq.
"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida 46.291 nusxada ofset usulida bosildi.
Korxona manzili: "Buyuk Turon" ko'chasi, 41.
Buyurtma № Г-661 Gazetani Muhabbat MAHSUDOVA sahilafadi.
Navbatchi: Feruza ODIOLOVA

Ro'yxatdan o'tish tartibi № 000137
Manzilimiz: 700129, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Tel: 144-62-34.
144-63-08